


## IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK



2022- yil yanvar-mart



2022- yilning yanvar-martida kichik  
biznes va xususiy tadbirkorlik  
subyektlarining YAHMdagi ulushi

### Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

#### Dastlabki ma'lumotlar


➤2022- yilning yanvar-martida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi 57,5 % ni tashkil etdi.

➤Kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga 11,2 birlikni tashkil qildi.

➤2022- yilning yanvar-martida 2004 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 29,9 foizga ko'p.



#### 2022- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 923 ta, savdoda 494 ta, sanoatda 266 ta, qurilishda 85 ta, yashash va ovqatlanishda 44 ta, tashish va saqlashda 42 ta tashkil etilgan.

## Yanvar-mart oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2021- y.	2022- y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	33 217	36 641	3 424
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	1 542	2 004	462

*Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushlari:*

YAHM	%	61,8	57,5	-4,3
Sanoat	%	23,6	19,4	-4,2
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	98,5	98,2	-0,3
Investitsiya	%	66,3	51,3	-15
Qurilish	%	96,8	98,2	1,4
Chakana savdo	%	89,6	86,8	-2,8
Xizmatlar	%	62,5	64,1	1,6
Yuk tashish	%	91,5	92,2	0,7
Yuk aylanmasi	%	63,9	58,8	-5,1
Yo'lovchi tashish	%	97,9	97,2	-0,7
Yo'lovchi aylanmasi	%	95,4	89,8	-5,6
Eksport	%	29,9	37,7	7,8
Import	%	14,1	9,9	-4,2



**2022- yilning yanvar-martida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHM va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da**

**YAHM  
57,5%**

**Savdo  
86,8%**

**Sanoat  
19,4%**

**Qurilish  
98,2%**

**Investitsiya  
51,3%**

**Eksport  
37,7%**

**Xizmatlar  
64,1%**


**Import  
9,9%**

**Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	(+;-)
<b>Andijon viloyati</b>	<b>1 542</b>	<b>2 004</b>	<b>462</b>
<i>shaharlar:</i>			
Andijon sh.	449	306	-143
Xonobod sh.	30	25	-5
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	75	104	29
Andijon	147	176	29
Baliqchi	70	143	73
Bo'ston	58	55	-3
Buloqboshi	49	43	-6
Jalaquduq	64	114	50
Izboskan	83	150	67
Ulug'nor	29	35	6
Qo'rg'ontepa	60	139	79
Asaka	140	162	22
Marhamat	43	102	59
Shahrixon	99	183	84
Paxtaobod	86	138	52
Xo'jaobod	60	129	69



**2022- yil yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da**



2022- yilning yanvar-mart oylarida tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Andijon shahri – 15,3 %, Shahrixon tumani – 9,1 %, Andijon tumani – 8,8 %, Asaka tumani – 8,1 %, Izboskan tumani – 7,5 %, Baliqchi tumani – 7,1 %, Qo'rg'ontepa tumani – 6,9 %, Paxtaobod tumani – 6,8 % ga tegishli.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	farqi (+;-)
<b>Jami</b>	<b>1 542</b>	<b>2 004</b>	<b>462</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	122	923	801
Sanoat	412	266	-146
Qurilish	117	85	-32
Savdo	593	494	-99
Tashish va saqlash	53	42	-11
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	59	44	-15
Axborot va aloqa	46	29	-17
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	35	40	5
Boshqa faoliyat turlari	105	81	-24



***Ma'lumot uchun:** 2022- yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:*



**Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda**

	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi (+;-)
Andijon sh.	449	306	-143
Shahrixon	99	183	84
Andijon	147	176	29
Asaka	140	162	22
Izboskan	83	150	67
Baliqchi	70	143	73
Qo'rg'ontepa	60	139	79
Paxtaobod	86	138	52

2022- yilning yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Andijon shahrida - 306 tani tashkil etdi.






2022- yil yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 11,2 birlikni tashkil etdi.



### Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni

(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-mart holatiga ko'ra\*




2022- yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon shahrida 24,5 birlik, Xonobod shahrida 17,2 birlik, Xo'jaobod tumanida 13,7 birlik, Bo'ston tumanida 12,2 birlik, Ulug'nor tumanida 10,8 birlik, Asaka tumanida 10,4 birlik, Oltinko'l tumanida 9,4 birlikni tashkil etgan. Buloqboshi tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 7,0 birlikka to'g'ri keldi.

\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)





**2022- yilning yanvar-martida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni**  
(har 1000 aholiga, birlikda)\*



\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



**2022- yilning yanvar-martida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan kichik biznes subyektlari soni eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda \***



**Faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)**

**Eng yuqori ko'rsatkich**

- Andijon shahri
- 24,5 birlik

**O'rtacha ko'rsatkich**


- Ulug'nor tumani
- 10,8 birlik

**Eng past ko'rsatkich**

- Buloqboshi tumani
- 7,0 birlik

\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)





### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi, (yanvar-mart holatiga ko'ra, % da)

2022- yilning yanvar-martida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi 57,5 % ni tashkil qildi. (2021- yilning yanvar-martida 61,8 %).

YAHMning o'tgan yilga nisbatan kamayishi yirik korxonalar ulushining ko'payishi bilan izohlanadi.

54,2%

2020- y.

61,8%


2021- y.

57,5%

2022- y.



### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmga nisbatan % da)



**2022- yilning yanvar-martida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da**

	<b>Sanoat</b>	<b>Qurilish</b>	<b>Xizmatlar</b>	<b>Investitsiya</b>
<b>Andijon viloyati</b>	<b>19,4</b>	<b>98,2</b>	<b>64,1</b>	<b>51,3</b>
<i>shaharlar:</i>				
Andijon sh.	24,2	96,5	72,2	58,6
Xonobod sh.	30,0	100,0	73,7	97,6
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko‘l	69,7	100,0	62,9	16,2
Andijon	78,2	100,0	51,6	60,3
Baliqchi	32,8	100,0	50,8	50,9
Bo‘ston	48,8	88,0	75,4	36,8
Buloqboshi	100,0	100,0	51,1	98,9
Jalaquduq	70,9	100,0	60,6	90,8
Izboskan	29,3	100,0	53,7	79,8
Ulug‘nor	53,4	97,9	67,8	98,1
Qo‘rg‘ontepa	27,5	100,0	48,5	81,2
Asaka	2,1	100,0	42,9	5,3
Marhamat	56,1	100,0	63,4	57,5
Shahrixon	76,6	100,0	47,1	24,3
Paxtaobod	26,4	100,0	62,5	88,7
Xo‘jaobod	76,4	100,0	66,7	44,1

Tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi eng ko‘p:

***Sanoatda-***

Buloqboshi (100,0 %),  
Andijon (78,2 %),  
Shahrixon (76,6 %),  
Xo‘jaobod (76,4 %),  
Jalaquduq (70,9 %),  
Oltinko‘l (69,7 %)  
Marhamat (56,1 %)


***Qurilishda-***

Buloqboshi (100,0 %),  
Shahrixon (100,0 %),  
Xo‘jaobod (100,0 %),  
Marhamat (100,0 %),  
Paxtaobod (100,0 %),  
Izboskan (100,0 %)  
Asaka (100,0 %)


***Xizmatlarda-***

Bo‘ston (75,4 %),  
Xonobod sh (73,7 %),  
Andijon sh (72,2 %),  
Ulug‘nor (67,8 %),  
Xo‘jaobod (66,7 %),  
Marhamat (63,4 %)  
Oltinko‘l (62,9 %)

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 80,8 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 37,7 foizini tashkil etdi.




**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da**




2022- yil yanvar-mart oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Buloqbooshi tumanida – 100,0 %, Andijon tumanida – 87,5 %, Shahrixon tumanida – 67,9 %, Qo'rg'ontepa tumanida – 60,6 %, Bo'ston tumanida – 58,9 %, Oltinko'l tumanida – 57,7 %, Xonobod shahrida – 56,7 % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich esa Baliqchi tumanida – 6,4 % ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 73,0 million AQSH dollarini yoki umumiy import hajmining 9,9 foizini tashkil etdi.



**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**




2022- yil yanvar-mart oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Buloqbooshi tumanida – 100,0 %, Ulug'nor tumanida – 97,1 %, Jalaquduq tumanida – 96,4 %, Qo'rg'ontepa tumanida – 86,8 %, Oltinko'l tumanida – 86,1 % va Bo'ston tumanida – 64,4 % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich esa Asaka tumanida – 0,7 % ni tashkil etdi.




2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 972,2 milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.




**2022- yilning yanvar-martida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, (mlrd. so‘m)**




Tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (355,2 mlrd. so‘m), Xo‘jaobod tumani (270,0 mlrd. so‘m), Shahrixon tumani (195,0 mlrd. so‘m), Jalaquduq tumani (146,1 mlrd. so‘m) va Oltinko‘l tumani (125,5 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Bo‘ston tumanida (40,8 mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo‘lib qolmoqda.



2022- yil yanvar- mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 19,4 foizni tashkil etdi.



2022- yil yanvar-mart holatiga tuman va shaharlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Tuman va shaharlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Buloqboishi (100,0 %), Andijon (78,2 %), Shahrixon (76,6 %), Xo'jaobod (76,4 %), Jalaquduq (70,9 %), Oltinko'1 (69,7 %) va Marhamat (56,1 %) tumanlari tashkil etdi. Asaka tumanida (2,1 %) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 3 808,1 mlrd. soʻmni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 86,8 foizini tashkil etdi. Oʻsish surʻati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 106,4 foizni tashkil qildi.



**2022- yilning yanvar-martida tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va oʻsish surʻati**




Tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Andijon shahri (1 137,2 mlrd. soʻm), Shahrixon tumani (444,9 mlrd. soʻm), Asaka tumani (345,3 mlrd. soʻm) va Andijon tumani (227,3 mlrd. soʻm) hissasiga toʻgʻri keladi.



2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 1 118,8 mlrd. so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 98,2 foizini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 108,2 foizni tashkil qildi.





### 2022- yilning yanvar-martida tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes subyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Andijon shahri (392,8 mlrd. so'm), Oltinko'1 tumani (146,6 mlrd. so'm), Xonobod shahri (103,8 mlrd. so'm), Qo'rg'ontepa (57,8 mlrd. so'm) hamda Shahrixon tumanlarida (46,9 mlrd. so'm) qayd etildi.




2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 426,6 mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 64,1 foizini tashkil qildi 2021- yilning yanvar-martiga nisbatan 112,8 foizga oʻsdi.



### 2022- yilning yanvar-martida tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʼati




Tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Andijon shahri (1 368,8 mlrd. soʻm), Andijon tumani (89,3 mlrd. soʻm), Shahrixon tumani (89,0 mlrd. soʻm), Asaka (88,9 mlrd. soʻm) va Oltinkoʻl (77,8 mlrd. soʻm) tumani hissasiga toʻgʻri keladi.




2022- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 92,2 foizni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,7 foizni tashkil qildi.


2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 58,8 foizni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,6 foizni tashkil qildi.



2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,2 foizni tashkil etib, bu esa 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 100,9 foizga ko'payishiga olib keldi.




2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 89,8 foizni tashkil etib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 101,7 foizga ko'payish kuzatildi.






Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022- yil I chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjud hamda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 949 ta respondentlar ishtirok etdi.



**2022- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi\*, % da**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi savdoda – 36,2 % (344 ta), xizmatlar sohasida – 24,4 % (231 ta), sanoatda – 24,2 % (230 ta), qurilishda – 9,0 % (85 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 6,2 % (59 ta)ni tashkil etdi.


\* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq, mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.



2022- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2022- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning I choragida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra 2022- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdo sohasida 40,4 % ni, sanoat sohasida 37,8 % ni, xizmatlar sohasida 35,5 % ni va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 30,5 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilish sohasida 60,0 %, xizmatlar sohasida 58,4 %, sanoat sohasida 53,5 % va savdo sohasida 52,9 % ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 18,7 % ni, qurilish sohasida 11,8 % ni va sanoat sohasida 8,7 % ni tashkil etdi.



**2022- yilning I- choragida tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar



2022- yilning I choragida tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin uch oyidagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini yaxshilanishga ishongan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 47,5 %, savdo sohasida 47,4 %, sanoat sohasida 47,0 % va qurilish sohasida 43,5 % tashkil etdi.

Shu bilan birga iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida 52,4 %, savdo sohasida 47,4 %, qurilish sohasida 47,1 % va sanoat sohasida 47,0 % tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy vaziyatni yomonlashishiga ishongan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 13,5 %, qurilish sohasida 9,4 %, sanoat sohasida 6,0 % va savdo sohasida 5,2 % ni tashkil etdi.

**2022- yilning I choragida tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oyidagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**

